

Veterinariya dori vositalari va mahsulotlarni sinovdan o'tkazish davlat ilmiy nazorat markazining mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi



Sifat bo'yicha qo'llanma

Ko'rib chiqish muddati: 3 yil

Tahrir: №1

RK:2025

Oie

RK-E

"TASDIQLAYMAN"

Veterinariya dori vositalari va mahsulotlarni sinovdan o'tkazish Davlat ilmiy nazorat markazi direktori

S.S. Oqqiyev
2025 y.



Sertifikatlashtirish organining
SIFAT BO'YICHA SIYOSAT

Veterinariya dori vositalari va mahsulotlarni sifati hamma narsadan ustun!

Veterinariya dori vositalari va mahsulotlarni sinovdan o'tkazish Davlat ilmiy nazorat markazi (keyingi o'rinda-Ilmiy markaz) veterinariya dori vositalari va mahsulotlarni sertifikatlashtirish organining (keyingi o'rinda-SO) asosiy faoliyati O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan yoki import qilinadigan veterinariya dori vositalari va mahsulotlarni sertifikatlashtirishda yuqori sifatli va xolis ishlarni amalga oshirishdan iborat.

Veterinariya dori vositalari va mahsulotlarni sertifikatlashtirish organining asosiy maqsadi sifatsiz veterinariya dori vositalari va mahsulotlardan himoya qilish, shuningdek, xalqaro bozorda mahalliy veterinariya dori vositalari va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishdir.

Sertifikatlashtirish organi rahbari va xodimlari veterinariya dori vositalari va mahsulotlarini xalqaro, milliy standartlar va milliy sertifikatlashtirish organi tizimining me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq sertifikatlashtirishni o'zlarining asosiy vazifasi deb biladi.

Belgilangan vazifalarni bajarish uchun SO tomonidan O'z DSt ISO/IEC 17065:2015 davlat standarti talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimi ishlab chiqilgan va joriy etilgan.

Sertifikatlashtirish organi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar sifatining muhim mezoni shartnomalar yoki kelishilgan shartlar talablariga muvofiq arizachilarning talablari va so'rovlarini qondirish va sertifikatlashtirish organiga bo'lgan to'liq ishonchini ta'minlashdir.

Sertifikatlashtirish organi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish, hamda tashkilotlar va aholiga sifatli xizmat ko'rsatish uchun tegishli resurslar bilan ta'minlangan.

Sertifikatlashtirish organi xodimlari o'rtasida javobgarliklar taqsimlangan bo'lib, har bir xodim o'z mehnat faoliyati natijalarini tahlil qilib boradi. Sertifikatlashtirish organi xodimlari veterinariya dori vositalari va mahsulotlarning sifatli bo'lishida barcha ma'sul ekanligini his qiladi.

Sertifikatlashtirish organi quyidagilarga kafolat beradi:

- ✓ xodimlarning yuqori malakaliligiga ;
- ✓ veterinariya dori vositalari va mahsulotlarni sertifikatlashtirishda ishlarni sifatli va o'z vaqtida bajarilishiga;
- ✓ ma'lumotlarning mahfiyiligi;
- ✓ arizachilar va boshqa manfaatdor iste'molchilarning talablarini qondirish uchun sifat menejmenti tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borishga;

Ilmiy markaz sertifikatlashtirish organi yuqori turuvchi rahbariyati (direktor) quyidagilarga kafolat beradi:

Sifat menejmenti tizimi hujjati

Hujjat Davlat ilmiy markazining shaxsiy mulki hisoblanadi va konfidensial xarakterga ega. Ushbu hujjat mazmuni tashkilot rahbari bilan dastavala kelishmasdan to'liq yoki qisman ko'rilishi, yoki tashkilot xodimlari bo'lmagan uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas

bet. 19.iz 21

Veterinariya dori vositalari va mahsulotlarni sinovdan o'tkazish davlat ilmiy nazorat markazining mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi



Sifat bo'yicha qo'llanma

Ko'rib chiqish muddati: 3 yil

Tahrir: №1

RK:2025

OIE

- sertifikatlashtirish organi sifat menejmenti tizimining barcha hujjatlari milliy va xalqaro standartlar talablariga muvofiq ishlab chiqilganligiga;

- sifat tizimi talablariga rioya qilish barcha xodimlar uchun majburiyligiga.

Sertifikatlashtirish organi belgilangan maqsadlarga quyidagi yo'l bilan erishiladi:

- ✓ xodimlar malakasini doimiy ravishda oshirib borish bilan;
- ✓ barcha xodimlarning sifat siyosatini anglashini va sifat tizimining samaradorligini qo'llab quvvatlashni ta'minlash bilan;
- ✓ arizachilarning (iste'molchilarning) talablarini tushunish bilan;
- ✓ xodimlarning ma'suliyatini oshirish bilan;
- ✓ bajarilgan ishlar sifati yuzasidan doimiy ravishda audit o'tkazish bilan;

Sifat siyosatini amalga oshirishda sertifikatlashtirish organ rahbari va xodimlari bevosita ishtirok etadilar.

Sifat bo'yicha menejer

S.Eshmurodov

Sana: _____ 2025 yil